

ILMIY TADQIQOT NATIJALARINI TIJORATLASHTIRISH VA INNOVATSION FAOLIYAT NI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Ne‘matjon Karimov

Namangan davlat universiteti San’at va sport fakulteti dekani, p.f.d. dotsent

Anvarjon Xakimov

Namangan davlat universiteti 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18943148>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishning nazariy asoslari, innovatsion faoliyatning zamonaviy shakllari (startaplar, texnologiyalar transferi, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish), mavjud tizimli muammolar hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq taklif va echimlar kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tijoratlashtirish, innovatsiya, startap, texnologiyalar transferi, intellektual mulk, venchur kapital.

Аннотация. В данной научной статье на основе комплексного подхода анализирующая теоретические основы коммерциализации результатов научных исследований, современные формы инновационной деятельности (стартапы, трансфер технологий, внедрение научных разработок в производство), существующие системные проблемы, а также конкретные предложения и решения, направленные на их устранение.

Ключевые слова: коммерциализация, инновация, стартап, трансфер технологий, интеллектуальная собственность, венчурный капитал.

Abstract. This scientific article analyzes the theoretical foundations of commercialization of research results, modern forms of innovative activity (startups, technology transfer, implementation of scientific developments into production), existing systemic problems, and specific proposals and solutions aimed at addressing them based on a comprehensive approach.

Key words: commercialization, innovation, startup, technology transfer, intellectual property, venture capital.

Global raqobat kuchayib borayotgan sharoitda iqtisodiy o‘shining muhim omillaridan biri ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tezkor va samarali joriy etishdir [1].

Ilmiy bilimlar, agar ular bozorga yo‘naltirilmasa, iqtisodiy qiymat yaratmaydi. Shu bois ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish innovatsion rivojlanishning markaziy bo‘g‘iniga aylanmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi tijoratlashtirish jarayonidagi muammolarni aniqlash, ilg‘or xalqaro tajriba asosida aniq taklif va amaliy echimlar ishlab chiqishdan iborat.

Tijoratlashtirish bu ilmiy tadqiqotlar natijasida yaratilgan bilim, texnologiya yoki mahsulotni bozor mexanizmlari orqali iqtisodiy qiymatga aylantirish jarayonidir.

Ushbu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- ❖ g‘oya va ilmiy natijani aniqlash;
- ❖ intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish;
- ❖ texnologik tayyorlik darajasini oshirish;
- ❖ bozorni tahlil qilish va biznes-model ishlab chiqish;
- ❖ investitsiyalarni jalb etish;
- ❖ ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

❖ Nazariy jihatdan tijoratlashtirish innovatsion siklning yakuniy bosqichi bo‘lib, ilmiy faoliyat bilan iqtisodiy faoliyatni bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajaradi.

Bu borada innovatsion faoliyat shakllariga ham alohida e‘tibor qaratish zarur.

Startaplar — yangi texnologiya yoki innovatsion g‘oyaga asoslangan, tez o‘shiga yo‘naltirilgan biznes subyektlardir[2]. Ular ilmiy tadqiqot natijalarini bozorga olib chiqishda eng moslashuvchan mexanizm hisoblanadi.

Texnologiyalar transferi — ilmiy muassasalar va sanoat korxonalarini o‘rtasida bilim va texnologiyalarni uzatish jarayonidir.[3].

Bu jarayon litsenziyalash, qo‘shma korxonalar, konsalting va muhandislik xizmatlari orqali amalga oshiriladi.

Mazkur shakl ilmiy ishlanmalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sanoat ishlab chiqarishiga tatbiq etilishini anglatadi. Bu, ayniqsa, yirik sanoat korxonalarini va davlat ishtirokidagi loyihalar uchun muhimdir.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Ilmiy muassasalar va biznes subyektlari o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarining etarli darajada shakllanmaganligi tijoratlashtirishni sekinlashtiradi.

Dastlabki bosqichdagi innovatsion loyihalar yuqori tavakkalchilikka ega bo‘lgani sababli an’anaviy moliya institutlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaydi [6].

Patentlash jarayonining murakkabligi va qimmatligi, huquqiy savodxonlikning pastligi ilmiy ishlanmalarni himoya qilishni qiyinlashtiradi.

Olimlar ko‘pincha biznes-rejalashtirish, marketing va menejment bo‘yicha etarli bilimga ega emas.

Yuqoridagi fikrlarni amalga oshirish borasida qo‘yidagi takliflarni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Birinchidan: Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish bunda universitetlar huzurida texnologiyalar transferi ofislari, biznes-inkubatorlar va akseleratorlar faoliyatini kengaytirish zarur.

Ikkinchidan: Moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. Bu borada davlat-xususiy sheriklik asosida venchur fondlarini tashkil etish, grant va seed-investitsiyalar hajmini oshirish taklif etiladi.

Uchinchidan: Intellektual mulkni boshqarish tizimini soddalashtirish. Patentlash xarajatlarini qisman subsidiyalash, onlayn maslahat xizmatlarini joriy etish muhim hisoblanadi.

To‘rtinchidan: Kadrlar tayyorlash va kompetensiyalarni oshirish. Ilmiy xodimlar uchun texnologik tadbirkorlik, startup menejmenti va marketing bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini joriy etish zarur.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirishda rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli tijoratlashtirish kuchli universitet–sanoat hamkorligi, faol venchur bozori va qulay huquqiy muhitga tayanadi.

Xususan, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi mamlakatlarda universitetlar nafaqat ta’lim va ilmiy markaz, balki innovatsion mahsulotlar ishlab chiqaruvchi muhim iqtisodiy subyekt sifatida faoliyat yuritadi.

AQShda Bayh–Dole qonuni universitetlarga davlat mablag‘lari hisobidan yaratilgan ilmiy ishlanmalarga egalik qilish huquqini bergan bo‘lib, bu ilmiy natijalarni tijoratlashtirish jarayonini sezilarli darajada faollashtirdi[5].

Germaniyada esa Fraunhofer institutlari modeli ilmiy tadqiqotlar va sanoat ehtiyojlari o‘rtasida samarali bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi.

Mazkur tajribalarni milliy sharoitga moslashtirishda quyidagi jihatlar e’tibor qaratish lozim: universitetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish, sanoat bilan uzoq muddatli hamkorlik shartnomalarini rag‘batlantirish, innovatsion loyihalar uchun soliq imtiyozlari joriy etish.

Davlat ilmiy va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashda asosiy muvofiqlashtiruvchi subyekt hisoblanadi. Davlat siyosati normativ-huquqiy baza yaratish, moliyaviy rag‘batlar berish va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali tijoratlashtirish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [4].

Xususan, grantlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va davlat buyurtmalari ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etishning muhim instrumentlari hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan innovatsion faoliyat samaradorligini baholash tizimini joriy etish ilmiy tashkilotlarning natijadorlikka yo‘naltirilishini ta’minlaydi.

Ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy samara ham keltiradi. Yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushining oshishi va eksport salohiyatining kengayishi buning yaqqol misolidir .

Bundan tashqari, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi yosh tadqiqotchilarni ilmiy faoliyatga jalb etadi, «miya oqimi»ning oldini olishga xizmat qiladi hamda hududlarning innovatsion rivojlanishiga turtki beradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi kompleks takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan: ilmiy tashkilotlarda tijoratlashtirish bo‘yicha alohida strukturaviy bo‘linmalarni kuchaytirish;

Ikkinchidan: startup loyihalar uchun soddalashtirilgan huquqiy va soliq rejimlarini joriy etish;

Uchinchidan: xususiy sektorni ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishga faol jalb etish;

To‘rtinchidan: ilmiy natijalarni baholashda ularning amaliy va bozor qiymatini inobatga olish.

Mazkur takliflarning izchil amalga oshirilishi ilmiy tadqiqot natijalarining iqtisodiyotga samarali integratsiyasini ta’minlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish zamonaviy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Bu borada aniqlangan muammolar institutsional, moliyaviy va kadrlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni bartaraf etish tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi.

Ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy aloqalarni mustahkamlash, davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish orqali raqobatbardosh iqtisodiyot shakllanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Schumpeter, J. A. The Theory of Economic Development. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. — 66–94-betlar.

2.OECD. Commercialising Public Research: New Trends and Strategies. — Paris: OECD Publishing, 2013. — 15–48-betlar.

3.Etzkowitz, H., Leydesdorff, L. Universities and the Global Knowledge Economy: A Triple Helix of University–Industry–Government Relations. — London: Pinter, 1997. — 27–59-betlar.

4.Drucker, P. F. Innovation and Entrepreneurship. — New York: Harper & Row, 1985. — 19–43-betlar.